

BADIY ADABIYOT TILIDA ISHLATILGAN LAQABLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Matnazarova Fazilat Mirza qizi

Qoraqalpoq DU O'zbek tilshunosligi kafedrasida magistranti

E-mail: matnazarovafazilat33@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada badiiy adabiyot tilida ishlatilgan laqablarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan holda ulardagi o'ziga xosliklar haqida mulohaza qilinadi. Misollar yordamida asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *onomastik birlik, qo'shimcha nominativ kategoriya, ikkinchi nom, asliy laqablar, rasmiy va norasmiy nom.*

Kirish. Avvalo onomastik birliklar haqida so'z ketganda o'zbek antroponimiyasining birliklari deb ism, laqab, taxallus, familiya va ota ismi (отчество) kabilarni keltirish mumkin. Bu maqolada avvalo laqablarning tarixiga ham nazar tashlangan holda, ularning badiiy uslubda qo'llanishi, leksik-semantik tasnifi haqida so'z yuritiladi. Yozuvchi badiiy obrazning xarakterini, holatini, kasbi, mansabi, amalini ifodalashda maxsus so'z va atamalardan foydalanadi. Demak, yozuvchi obrazning eng muhim xususiyatlarini, ruhiy holatini, kasb-korini o'z asarlarida ifodalash uchun laqablardan ham keng foydalanadi.

Asosiy qism. Xo'sh laqab atamasiga nomshunos olimlar qanday ta'rif beradi? "Laqab" arabcha so'z bo'lib, biror xususiyatga ko'ra, kishiga xazil qilib yoki masxaralab yoki uning kasbi-koriga, tashqi ko'rinishiga, nasl-nasabiga ko'ra berilgan qo'shimcha nom, shuningdek, ma'lum bir vaziyat tufayli o'zgartirib olingan nomdir degan ta'riflar ham mavjud. Taniqli tilshunos olim, o'zbek tilshunosligida onomastika yo'nalishining ilk tadqiqotchisi Ernest Begmatov o'zining "O'zbek antroponimikasi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida antroponimlarning asosiy

kategoriyasi deb – ismlarni, “qo‘shimcha nominativ kategoriyasi” deb esa laqab, taxallus hamda familiyalarni qayd etadi [1].

Bundan xulosa chiqadiki, laqablar ham xuddi ismlar kabi atoqli otlar bo‘lganligi uchun antroponimik birlik sifatida o‘rganiladi. Ismlar odamlarning rasmiy nomi bo‘lsa, laqablar norasmiy nomidir. Ismlar kishilarga ular tug‘ilgandayoq qo‘yiladi, laqablar esa qachon qo‘yilishi noma‘lum. Masalan, “Alpomish” dostonida Alpomish tug‘ilganda Shohimardon pir uning ismini “Hakimbek” deb qo‘yadi. 7 yoshga to‘lganda esa ko‘rsatgan jasorati tufayli xalq uni “Alpomish” deb atay boshlaydi. Shuningdek, xalq dostonlaridan “Kuntug‘mish” dostonida Kuntug‘mishning otasining ismi Qoraxon bo‘lib, laqabi Qilichxon edi. Bu kabi obrazlarni kitobxon ko‘p hollarda ismlari bilan emas, ikkinchi nomlari ya‘ni ularning laqablari bilan taniydi. Laqab leksemalar so‘zlarning konotativ ma‘nolaridan hosil bo‘ladi. Laqablarni tadqiq etganda uning ko‘chma ma‘no hosil bo‘lish usullarini ham e‘tiborga olishimiz joizdir. Laqab so‘zi “Navoiy asarlari lug‘ati”da izohlanmagan, uning ko‘plik shakli “alqob” arabcha ekani u “laqablar, nomlar” deb talqin qilingan [2]. “Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da “laqab - laqab, nom” deyilgan sodda izoh mavjud, “alqob” - 1) nomlar, taxalluslar; 2) sifatlash, maqtash so‘zlari” izohi berilgan [3]. Laqab til leksikasida qadimiy davrlardan mavjud hodisadir. U qadimiy turkiy til toshbitiklarida ham uchraydi: Bilkaqog‘on, Toqa baxshi, Qutlug‘ Temur, Tak Bogu, Bayan qora, kabi. 3[M a l o v C. E. Енисейская письменность тюрков. М.: Изд-во АН СССР, 1952]. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida laqablardan namunalar berilgan - “Qilichxon harakatlarida qilichdek kesuvchi. Sökman – pahlavonlarga beriladigan laqablardan biri. Ogö - ög - aql va ziyraklik. Shuning uchun yoshi ulug‘lariga ögö laqabi beriladi. Üzo‘k - xotinlar laqabi. Sof oltin kabi toza pok xotin ma‘nosida altun üzo‘k deyiladi. Sag‘un - qarluq kattalarining laqabi kabi. Turkiy tabiblarga ata sag‘un deydilar [4]. Laqabda shaxsga laqab qo‘yuvchining salbiy munosabati ifodalangan bo‘lishi mumkin. Masalan, xalq Olimxonni “Olim zolim” deb atagan, Bartoldning qayd qilishicha, XII asr sadrlarining eng yomon timsoli bo‘lmish Sadr Muhammad Ibn Ahmad Abdulaziz

xalq tomonidan “Sadr jahon” emas, “Sadri jahannam” deb nomlangan. Nomshunos olimlar orasida laqab tushunchasini tor va keng ma'noda talqin qilish uchraydi. Shunga ko'ra, shaxsga maxsus laqab sifatida berilgan nomlarga haqiqiy ma'nodagi laqabdir.

Bunday laqablar tilda laqab sifatida yuzaga kelgan nomlardir. Bu tip laqablarni tilda aslida laqab sifatida paydo bo'lgani uchun asliy laqablar deyishadi. “Boburnoma”da uchraydigan quyidagi laqablar asliy laqablarga misol bo'la oladi: [5]

Olachaxon: Olachaxonning vajhi tasmiyasi muni derlarkim, mo'gul tilida o'lturguchini “olacha” derlar. Qaloqni necha qatla bosib, qalin kishisini qirgan uchun Olachi de-de kasrati iste'mol bila Olacha bo'libtur. [5. 68-69-6.]

Chopuq: "Bir martada Xiyobonda Ibrahim bechchik chopqulashti, yuziga choptilar. Mundin so'ng Ibrohim chopuq derlar edi. [5. 99-6.]

Hez: “Boqi hez bilakim, agarchi hez derlar edi, vale qilichqa mahkam erklik edi, chopqulashti”. [6. 300-6.] O'zbekiston xalq yozuvchisi Mirmuhsinning “Temur Malik” romanida qo'llangan ismlar (antroponimlar)ning funktsional-semantik xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi [6]. Mirmuhsin bu asarida ko'proq o'sha, ya'ni XIII-XIV asr eski o'zbek adabiy tilida, turkiy xalqlar orasida keng qo'llangan kishi ismlari, laqablar, taxalluslardan o'rinli foydalangan. Asarning bosh qahramoni Temur Malik “Fili Mahmud” laqabiga ega. “Fili Mahmud” – ellik qadamcha yerdan tegirmon toshini yelkada ko'tarib kelib, charx ustiga o'rnatib berganidan tashqari, gap ko'tarar, har qanday noxush xabar oldida sachrab ketmas, bo'ronlarga qoyadek chidamli edi. “Fili Mahmud” laqabi ham shundan bo'lsa kerak. Mo'g'ullar esa Temur Malikni “Qora Ives” – “Qora Qoplon” laqabi bilan yuritishgan: “Tunda qora “Ives” paydo bo'lib, posbonlarni yechinib yotgan joyida qonga belab, qilich bilan chopib, nayza bilan sanchib... ketishi mo'g'ullarning tinkasini quritdi. Ular tun bo'yi uxlamay “Ives”ni kutadigan, poylab chiqadigan bo'lib qoldilar” kabilar [6. 303-6]. Asarda Xorazmshohning onasi – Turkon xotun obrazi ham xarakterli obrazlardan. U o'ta makkor, o'g'li – Xorazmshohning ishiga ham bo'lar-bo'lmasga aralashaveradigan ayol bo'lib, asarda u “Xudovandi Jahon”,

“Qari tulki”, “Buyuk enamiz” laqablari bilan ham yuritiladi. Romanda salbiy mazmunli laqabga ega bo‘lgan ayollardan biri Binafsha bekadir. Temur Malikning xotini Oychechakning kanizagi bo‘lgan bu xotin “Qora qanjiq” – “Olaqanjiq”, “ko‘rpa tagidagi ilon” laqablariga ega. “Binafsha beka ham Gurganjdand Oychechak bilan birga kelgan, bu enaganing ham Turkon xotunga aloqadorligini Temur Malik allaqachon sezgan. U hamma narsani kavlashtirib, hamma gapga burnini tiqardi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Temur Malik bilan Shohmurod Ko‘histoniy uni “Qora qanjiq” deb atashardi o‘zaro. “Olaqanjiq” oqsoqoldan bola topilganini eshitib, xursand bo‘lganidan yig‘lab yubordi” [6. 317-6.] Asarda So‘qtu no‘yonning laqabi “chono” (“xulgana”, “sichqon”) bo‘lsa, Uloq no‘yonning laqabi mo‘g‘ulcha “chono” (“qashqir”)dir. “Movaraunnahr tuprog‘iga o‘tishda u Xo‘jand, undan to O‘sh-u O‘zgangacha borishni sinalgan “tsergiyi” (harbiy boshliq)lar So‘qtu no‘yon bilan Uloq no‘yonlarga topshirdi. Ularning kattasi o‘ttiz besh yoshida, laqabi “Xulgana” (sichqon) edi. Yumaloqligi, tishlarining o‘tkirligi, pitirlab tez yurishi sababli shu laqabni olgan bo‘lsa kerak. Ikkinchisi o‘ttiz uch yoshda bo‘lib, laqabi “Chono” (qashqir), “Udirdagch” (yo‘lboshchi, ya’ni Chingizxon) bu ikki no‘yonga Udegey, Chig‘atoyu Botuxondek e’timod qo‘ygan...” [6. 189-6.] kabilar.

Xulosa. Shuni ta’kidlash lozimki, laqablarning berilish motivlarini bilish doim ham oson kechavermaydi. Chunki laqabning qo‘yilishiga asos bo‘lgan motiv ko‘p holda oila, bir avlod yoki nari borsa bir mahalla, qishloqlar aholisiga ma’lum bo‘ladi. Shu sababli ko‘p olimlar laqabning qo‘yilish sababini dialektolog va etnografik ekspeditsiyalar vaqtida so‘rab-surishtirib bilib olishadi. Shunday qilib badiiy asar tilida ishlatilgan laqablarni o‘rganish o‘zbek tilshunosligining onomastika, onomosiologiya sohalarini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Laqablar badiiy asarda tasvirlanayotgan obrazlarning turli-tuman jihatlarini ixcham kontekstda chuqur ma’noli va ta’sirchan tasvirlash vositasi hisoblanar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бегматов Э. Ўзбек антропонимикаси. Тошкент. Фан. 1985 й. 49-б.
2. Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари лугати. Тошкент, 1972. 43-б.
3. Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. 1-том. Тошкент: Фан, 1983. 82-83-б.
4. Mahmud Koshg'ariy. Devoni lug'otit turk. 1-tom. Toshkent, 1960. 82-101-382-415-б.
5. Бобурнома. Тошкент: Фан, 1960 68-69-99-300-бетлар.
6. Мирмухсин. Темур Малик: /Тарихий роман/.— Т.: «Шарк» НМК 1996. 7-б.,